


### Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

2018 yilning yanvar-senabrida 3,2 ming ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,1 % ko'p demakdir.


Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (24,7 %), savdo sohasida (21,8 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (15,1 %), qurilish tarmog'ida (12,8 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (10,4 %), tashish va saqlash (2,9 %) tashkil etgan.

#### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



## 2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi

YHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 70,7 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich 2017 yil yanvar-sentyabrgas nisbatan 1,8 bandga kamaygan.



## 2018 yil yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi (% da)

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>52,0</b>	<b>98,3</b>	<b>74,1</b>
Samarqand.sh	39,7	94,7	58,3
Kattaqurg'on.sh	48,5	100,0	92,1
Bulung'ur	100,0	100,0	98,8
Jomboy	17,3	100,0	87,3
Ishtixon	62,6	100,0	98,5
Kattaqurg'on	49,4	100,0	98,7
Narpay	28,2	100,0	98,0
Nurobod	100,0	100,0	95,7
Oqdaryo	84,6	100,0	98,3
Payariq	54,1	100,0	98,5

Pasdarg'om	67,3	100,0	82,6
Paxtachi	76,8	100,0	96,3
Samarqand	99,5	100,0	93,0
Tayloq	82,5	100,0	86,0
Urgut	96,9	100,0	96,9
Qo'shrabot	100,0	100,0	99,1

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Bulung'ur tumanida (100,0 %), Nurobod tumanida (100,0 %), Samarqand tumanida (99,5%), tashkil etadi.

Qurilishda Urgut (100,0 %), Jomboy (100,0%), Pasdarg'om (100,0%) Nurobod (100,0) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qo'shrabot (99,1%), Bulung'ur (98,8%) Kattaqurg'on (98,7%) Ishtixon (98,5%) va Narpay (98,0%) tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar–sentyabrda kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:  
– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 4167,5 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining (52,0%) yoki 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 103,5 % ni tashkil qildi;

2196,129 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 54,7 % ni) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 130,1 % ni tashkil qildi;

2106,3 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 98,3 % ) bajarildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 114,2 % ni tashkil qildi;

5271,6 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 74,1 %) 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 104,5 % ni tashkil qildi;


– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 90,8 % yoki 7099,9 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 102,3 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

–154,2 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 74,3 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 16.4 mln. AQSh dollariga yoki 12 % ga ko`p;


– avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,3 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 96,9 %) ko`payishi ta`minlandi;

– yo`lovchi aylanmasining esa 3,0 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 98,2 % ) ko`payishi ta`minlandi;

## Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



## 2018 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahar (1466,7 mlrd.so'm), Samarqand tumani (610,6 mlrd.so'm), Tayloq tumani (535,6 mlrd.so'm) va Bulungur tumani (376,2 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Nurobod tumanida (20,0 mlrd.so'm) va

Qo'shrabot tumanida (16,5 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.



### 2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahar (1475,5 mlrd.so'm), Urgut (1068,8 mlrd.so'm), Bulungur (520,0 mlrd.so'm), Pastargom (483,9 mlrd.so'm), Ishtixon (323,0 mlrd.so'm), Samarqand (206,9 mlrd.so'm) tumanilari hissasiga to'g'ri keladi.





**2018 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Samarqand shahrida (2335,8 mlrd.so'm), Urgut (341,6 mlrd.so'm) va Samarqand (281,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2018 yil III - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 83 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma`lumotlari tahlili, iqtisodiy vaziyatni – qulay 28.9 % qoniqarli esa 61.4 % deb hisoblashini, mos ravishda respondentlarning iqtisodiy vaziyatni qulay yoki qoniqarli deb baholashi qurilish sohasida – 9,1 % va 63.6 %, savdo sohasida – 47,4 % va 47,4 %, xizmatlar sohasida – 28.6 % va 71,4 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 33,3 % va 50 %, sanoatda – 20 % va 70 % ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 16,7 %, qurilishda – 27,3% ni tashkil qildi.

### Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil III-chorak uchun, %



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 20 % sanoat korxonalari, 47,4 % – savdo, 28,6 % – xizmatlar, 33,3 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 9,1 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

## Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.